

O'ZBEK SIYOSIY DISKURSINING KOGNITIV-DISKURSIV TAHLIL

F.J. Yakubov ¹*Annotatsiya:*

Ushbu maqolada o'zbek siyosiy diskursining kommunikativ-pragmatik strategiyasi Prezident siyosiy nutqlari misolida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: strategiya, kommunikativ, kommunikativ taktika, siyosiy diskurs, kognitiv, eksplisit, implisit, lisoniy shaxs, kognitiv-nutqiy strategiya.

Har bir insonning nutqida ma'lum intensiya (maqsad) ifodalanadi va kommunikator o'z maqsadiga erishish strategiyasi hamda taktikasini belgilaydi. Strategiya kommunikativ hatti-harakatlarning umumiy rejasini anglatadi, u bajarilganda maqsadga erishishga olib keladi. Bunga suhbatni rivojlantirish yo'nalishi va kerakli natijaga erishish uchun taktikadan foydalanish kiradi.

Ushbu maqolada o'zbek siyosiy diskursini quyidagi kriteriyalar asosida tahlil qilindi:

1. O'zbek siyosiy diskursining umumiy xarakteristikasi. Bu yerga yana quyidagilar kiradi: siyosiy arbobning lisoniy shaxs sifatida tavsifi (tolerantlik) // gapiruvchining kognitiv-nutqiy tavsifi.
2. Kommunikativ-pragmatik kenglik (kontekst) tavsifi, ya'ni kontekstual tahlil.
3. Lisoniy kenglik (matn) tavsifi, ya'ni matn tahlil.
4. O'zbek siyosiy diskursida eksplisitlik va implisitlik tavsifi.

Tadqiqot materiali sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning siyosiy nutqlarini tahlil qildik. Lisoniy shaxs sifatida siyosiy arbobning tavsifi (tolerantlik), gapiruvchining kognitiv-nutqiy strategiyasi tavsifi. Bunda Yu. N. Karaulov² tomonidan taklif qilingan kriteriyalarga amal qilamiz:

- 1) diskursni qabul qilishning murakkablik darajasi (bu yerda hajm, teng bog'lovchili qo'shma gaplar va ergashgan qo'shma gaplarning borligi, gapiruvchi g'oyalarining aniqligi, tinglovchilar uchun mavzularning ahamiyatga ega ekanligi kabi diskursning tashkil etuvchilarni e'tiborda tutamiz);
- 2) borliqni aks ettirishning aniqligi va chuqurligi (bu yerda faktlar konstatatsiyasini, gapiruvchining voqealarga aks ta'sirini qayd etamiz, diskurs mazmuni yoritiladi);
- 3) diskursning ma'lum bir maqsadli yo'naltirilganligi (bu yerda biz tomonimizdan gapiruvchining (siyosatchining) qandaydir harakatga chaqirig'i, qandaydir voqea-hodisalar haqida axborot berishi, nimagadir aniqlik kiritishi ajratib ko'rsatiladi) [Karaulov 2002].

Ushbu kriteriyalar bo'yicha tahlilni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy nutqlarining konkret misollarida ko'rishimiz mumkin.

1-jadval

Rasmiy chiqishlar	Diskursni qabul qilish murakkabligi darajasi	Borliqni aks ettirishning aniqligi va chuqurligi	Diskursning ma'lum maqsadli yo'naltirilganligi
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 19-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi https://president.uz/oz/lists/view/1063	Nutq yengil qabul qilinadi, yuksak aktual masalalar yoritilgan	Sh. Mirziyoyev nutqi borliqqa mos keladi, mamlakatda valyutani erkin konvertatsiya qilishga o'tilganligi, Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari bilan hamkorlik, yaxshi qo'shnichilik munosabatlari o'rnatilganligi, Orol	Gapiruvchi Orol dengizining qurishi bilan bog'liq oqibatlarini bartaraf etish uchun xalqaro miqyosdagi sa'y-harakatlarni birlashtirishga, Afg'onistondagi muammolarni tinch muzokaralar yo'li

¹ F.J. Yakubov, SamDu Kattaqo'rg'on filiali xorijiy tillar kafedrasida o'qituvchisi

² Караулов, Ю. Н. Русский язык и языковая личность / Ю. Н. Караулов. — М.: Едиториал УРСС, 2002. — 264 с.

		fojiasi, Afg'ionistondagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, xalqaro terrorizmning oldini olish haqida qayd etadi	bilan hal etishga chaqiradi.
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "SHHT – KXSHT" formatidagi uchrashuvdagi nutqi 18.09.2021 https://president.uz/oz/lists/view/4623	Nutq yetarli darajada yengil qabul qilinadi, yuksak aktual	Prezident Shavkat Mirziyoyev nutqi real borliqqa mos keladi, "Tolibon" harakati Afg'onistonda hokimiyatni egallaganligini qayd etadi.	Notiq Afg'oniston hududi xavfsizligimizga tahdid va xatarlar manbayiga aylanishiga yo'l qo'ymaslikka, qat'iy choralar ko'rgan holda terrorchilarni Afg'onistonga ko'chirish kanallarini kesishga chaqiradi.
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a'zo davlatlar rahbarlari Kengashi majlisidagi nutqi 04.07.2023 https://president.uz/oz/lists/view/6457	Nutq qisqa, gapiruvchi fikrining, aniqligi bois tinglovchilar uchun tushunarli.	Shavkat Mirziyoyev SHHT doirasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish bo'yicha aniq takliflarni qayd etib o'tadi. Afg'onistonda murakkab vaziyat saqlanib qolayotganligini qayd etadi va "SHHT – Afg'oniston" muloqot guruhi shaklidagi birgalikdagi ishlarni va maslahatlashuvlarni qayta tiklashni maqsadga muvofiq deb biladi.	SHHT ning innovatsion taraqqiyot, raqamlashtirish va robotlashtirish, sun'iy intellekt, biotexnologiya, farmatsevtika va sanoatning boshqa istiqbolli tarmoqlarini qamrab oluvchi Yangi iqtisodiy muloqot dasturini qabul qilish masalasini ko'rib chiqish, turizm sohasida hamkorlikni rivojlantirishni taklif qiladi, Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston temir yo'lini qurish loyihasi bo'yicha amaliy ishlar boshlanganini aytib o'tadi.
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021 yil 21-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 76-sessiyasidagi nutqi https://president.uz/oz/lists/view/4633	Nutq qisqa va aniq bo'lganligi uchun yengil qabul qilinadi. Aktual takliflar olg'a suriladi.	Shavkat Mirziyoyev 21 sentabrda BMT Bosh Assambleyasi 76-sessiyasi umumiy munozaralarining birinchi kunida videomurojaat bilan so'zga chiqdi. Shavkat Mirziyoyev COVID-19	Shavkat Mirziyoyev pandemiyadan keyingi davrda jahon iqtisodiyotini qayta tiklash muammolarini o'rganish, kambag'allikni qisqartirish

		pandemiyasi haqida, Afg'onistondagi vaziyatni tahlil qiladi, Orolbo'yi hududida "yashil" energetika bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorlikda xalqaro Forum o'tkazish rejalashtirilayotgani haqida gapiradi.	bo'yicha ilg'or tajribalarni hayotga tadbiiq etishga bag'ishlangan Xalqaro konferensiyani Toshkentda o'tkazishni taklif qildi.
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023 yil 20-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqi https://president.uz/oz/lists/view/6679	Katta hajmli bo'lishiga qaramasdan nutq yengil qabul qilinadi, aktual nutq.	Mamlakatda majburiy mehnat va bolalar mehnatiga barham berildi. Gender tenglikka erishish yo'lida qilinayotgan ishlar haqida gapirdi. Notiq Orol fojiasi oqibatlaridan, Afg'onistondagi vaziyatdan tashvishlanadi.	BMT huzurida Markaziy Osiyo yoshlarini rivojlantirishga ko'maklashish bo'yicha ishchi guruh tashkil etish taklif qilindi. Keyingi yil O'zbekistonda Osiyo xotin-qizlar forumini o'tkazish taklif qilindi. Afg'oniston muammosini hal etish uchun birlashishga chaqiruv.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Караулов, Ю. Н. Русский язык и языковая личность / Ю. Н. Караулов. — М.: Едиториал УРСС, 2002. — 264 с.
- [2]. Abulkasimovna, E. Z., & Leonidovna, M. N. (2023, March). *The lexical-semantic usage of professional lexemes in "Utgan kunlar" ("Past days") by Abdulla Qadiri. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 20-22).*
- [3]. Erdanova, Z., & Eshdavlatova, A. (2024, April). *Lexical classification of language units. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 43-47).*
- [4]. <https://president.uz/oz/lists/view/1063>
- [5]. <https://president.uz/oz/lists/view/4623>
- [6]. <https://president.uz/oz/lists/view/6457>
- [7]. <https://president.uz/oz/lists/view/4633>
- [8]. <https://president.uz/oz/lists/view/6679>